XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH BO‘YICHA DAVLAT SIYOSATI

Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti
ORCID: 0009-0009-2140-3363

Qabul qilindi: 05.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 06.10.2025
Tasdiqlandi: 07.10.2025

Kalit so‘zlar:
xufyona iqtisodiyot, davlat siyosati, soliqqa tortish, raqamli iqtisodiyot, nazorat, shaffoflik.

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyotning holati, uning jamiyat va iqtisodiyotga ta’siri hamda uni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Xususan, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, nazorat mexanizmlarini optimallashtirish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish zaruriy omil sifatida ko‘rsatilgan.

Keywords:
shadow economy, government policy, taxation, digital economy, transparency.

Abstract. This thesis examines the state of the shadow economy in Uzbekistan, its impact on society and the economy, and the main directions of government policy to reduce it. Improving the taxation system, developing the digital economy, optimizing control mechanisms, and increasing public participation are highlighted as key measures.

Ключевые слова:
теневая экономика, государственная политика, налогообложение, цифровая экономика, прозрачность.

Аннотация. В тезисе рассматривается состояние теневой экономики в Узбекистане, её влияние на общество и экономику, а также приоритетные направления государственной политики по её сокращению. Особое внимание уделяется совершенствованию налоговой системы, развитию цифровой экономики, оптимизации контрольных механизмов и расширению участия общества.

Kirish. Xufyona iqtisodiyot - bu davlat nazoratidan tashqarida amalga oshiriladigan, rasmiy statistikada qayd etilmaydigan va soliqqa tortilmaydigan

iqtisodiy faoliyatlar yig‘indisidir. Unga norasmiy mehnat, yashirin ishlab chiqarish, noqonuniy savdo va korrupsiya bilan bog‘liq faoliyatlar kiradi. Bunday iqtisodiy faoliyat nafaqat davlat byudjeti uchun, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun katta xavf tug‘diradi.

O‘zbekiston sharoitida xufyona iqtisodiyotning salmog‘i yuqoriligi masalasi so‘nggi yillarda dolzarb mavzuga aylangan. Turli manbalarda mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) qariyb 30–40 foizi norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelishi qayd etiladi. Bu esa davlat byudjetiga milliardlab so‘m mablag‘larning kelib tushmasligiga, ijtimoiy sohalarning yetarli darajada moliyalashtirilmasligiga va eng asosiysi, iqtisodiyotda adolat tamoyilining buzilishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, xufyona iqtisodiyot mavjudligi aholining katta qismini ijtimoiy himoya tizimidan chetda qoldiradi. Norasmiy bandlik rasmiy statistikaga kirmagani uchun pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy kafolatlar ta’minlanmaydi. Bu esa uzoq muddatda ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtirib, kambag‘allik darajasini oshirishi mumkin.

Davlat miqyosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, xufyona iqtisodiyot nafaqat byudjet tushumlarini kamaytiradi, balki investitsiya muhitiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Norasmiy faoliyatning keng tarqalishi raqobat muhitini buzadi, halol tadbirkorlarning faoliyatini cheklaydi hamda korrupsiyaga zamin yaratadi. Shu bois ushbu muammoni bartaraf etish, iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish va shaffoflikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda xufyona iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha qator konseptual hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, soliq tizimini soddalashtirish, elektron xizmatlarni keng joriy qilish, nazorat mexanizmlarini optimallashtirish va jamoatchilik ishtirokini oshirish kabi islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat rasmiy

iqtisodiyotning ulushini oshirish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va aholining davlatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilishi kutilmoqda.

Mavzuga oyd adabiyotlar sharhi. Xufyona iqtisodiyot masalasi rivojlanayotgan mamlakatlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, uning tahlili birinchi bo‘lib ingliz sotsiologi K. Xart tomonidan amalga oshirilgan. U “norasmiy iqtisodiyot” atamasini ilmiy muomalaga kiritdi va daromad olishning formal va noformal shakllari o‘rtasidagi farqni ish haqi va o‘zini o‘zi ish bilan band qilish orqali izohladi. Shuningdek, P. Gutman (AQSh) xufyona iqtisodiyotning ko‘lamiga va jamiyatdagi roliga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidladi.

XX-asrning 70-yillarining oxiri va 80-yillar boshlarida rivojlangan mamlakatlar olimlari va siyosatchilari amaldagi iqtisodiyot ko‘lamlari rasmiy iqtisodiyot ko‘lamlaridan ortiqroq ekanligini aniqladilar. Masalan, E. Feyg xufyona iqtisodiyotning 70-yillarning oxirida AQSh rasmiy YaIMning uchdan bir qismini tashkil etishini baholadi. Bu baho AQSh Kongressining Iqtisodiy qo‘mitasida maxsus muhokama qilindi. Faygning fikriga ko‘ra, har bir alohida xufyona iqtisodiyot turining tafsifi uning vakillari buzadigan institutsional qoidalar to‘plami bilan belgilanadi, ya’ni ularning faoliyati rasmiy qoidalar va normalarning o‘rnatilgan tizimi doirasidan tashqariga chiqadi yoki uni chetlab o‘tadi, shuning uchun u o‘lchanmaydi va ijtimoiy jihatdan hisobga olinmaydi.

O‘zbekiston sharoitida xufyona iqtisodiyotning jamiyat va iqtisodiyotga salbiy ta’siri ko‘plab ilmiy ishlar va tahlillar orqali yoritilgan. Jumladan, Choriev M., Karimov M., Xamrayev O. va Urazovning ilmiy ishlarida xufyona iqtisodiyotning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari, uni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar va davlat siyosatining roli keng tahlil qilingan. Xalqaro adabiyotlarda esa (masalan, De Soto va boshqalar) xufyona iqtisodiyot asosan soliqqa bo‘ysunmaslik va ortiqcha nazorat mexanizmlarining oqibati sifatida talqin qilinadi.

Xufyona iqtisodiyotning namoyon bo‘lish shakllaridan biri — korrupsiya, u jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish masalalari barcha mamlakatlar uchun dolzarbdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so‘zlariga ko‘ra: “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak”.

Shu tarzda, xufyona iqtisodiyot nazariy va amaliy jihatdan rivojlangan mamlakatlar va O‘zbekiston sharoitida tahlil qilingan, uning ko‘lamini aniqlash, davlat siyosatini shakllantirish va korrupsiyaga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda taqqoslash va statistik tahlil usullari qo‘llanildi. O‘zbekiston bo‘yicha Davlat statistika qo‘mitasi, Soliq qo‘mitasi hamda xalqaro tashkilotlarning ochiq ma’lumotlari asosida tahlillar o‘tkazildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va OAV ma’lumotlari manba sifatida foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston sharoitida xufyona iqtisodiyotni qisqartirishga davlat siyosatining samaradorligi bir necha asosiy omillarga bog‘liq bo‘lib, ular soliq tizimi, raqamlashtirish, nazorat mexanizmlari va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Soliq tizimi: Mamlakatimizda ilgari murakkab soliqlar tizimi va yuqori soliq stavkalari kichik va o‘rta biznes vakillarini norasmiy faoliyat yuritishga undagan. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarning kamayishiga olib kelgan. Shu sababli so‘nggi yillarda soliq stavkalari pasaytirilib, kichik biznes uchun qulay sharoitlar yaratildi. Masalan, mikro va kichik tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli soliqlar joriy etilib, soliq deklaratsiyalari soddalashtirildi. Natijada,

tadbirkorlikning rasmiy shakllarini tanlash rag‘batlantirildi va norasmiy faoliyat ulushi sezilarli darajada kamaymoqda.

Raqamlashtirish va elektron xizmatlar: Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda raqamlashtirish muhim rol o‘ynamoqda. Elektron hisob-faktura, onlayn-kassa tizimlari va soliq deklaratsiyalarining joriy qilinishi tadbirkorlarning moliyaviy shaffofligini oshirdi. Shu orqali, soliq organlari real vaqtda daromadlarni kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi, bu esa norasmiy faoliyatni aniqlash va kamaytirish imkonini yaratdi. Raqamlashtirish orqali shaffoflik va hisobot berish madaniyati shakllanishi bilan birga, korrupsion risklar ham sezilarli darajada kamaydi.

Nazorat tizimi: Davlat organlarining ortiqcha vakolatlari va haddan tashqari nazorat mexanizmlari tadbirkorlik faoliyatiga to‘siq bo‘lgan. Shu sababli, 2019–2021 yillarda qabul qilingan “Yo‘l xaritasi” asosida 270 dan ortiq nazorat funksiyalari qisqartirildi (Review.uz). Bu chora tadbirkorlik muhitini soddalashtirish, rasmiylashtirilgan faoliyatni rag‘batlantirish va norasmiy iqtisodiy faoliyatni kamaytirishga qaratilgan bo‘ldi.

Ijtimoiy omillar: Xufyona iqtisodiyotning kengayishida ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Aholining soliq madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi natijasida rasmiylashtirilmagan ishchi kuchi va norasmiy daromadlar ko‘paymoqda. Ko‘plab fuqaro va tadbirkorlar soliqqa tortilmaslik orqali qisqa muddatli iqtisodiy foyda olishga intiladi, bu esa rasmiy iqtisodiyotning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, aholining soliq madaniyati va iqtisodiy ongini oshirish, shaffoflikni targ‘ib qilish va davlat xizmatlaridan foydalanishning qulayligini oshirish muhim omil sifatida ko‘riladi.

Natijada, yuqorida qayd etilgan barcha omillar — soliq siyosatining soddalashtirilishi, raqamlashtirish va elektron tizimlar joriy etilishi, ortiqcha nazorat mexanizmlarining qisqartirilishi hamda aholining soliq madaniyatini oshirish — birgalikda xufyona iqtisodiyotni qisqartirishga xizmat qilmoqda. Shu

bilan birga, bu chora-tadbirlar davlat byudjetining tushumlarini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va aholining rasmiy iqtisodiyotga bo‘lgan ishonchini oshirishga yo‘naltirilgan.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston sharoitida xufyona iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu masala bir nechta strategik yo‘nalishlarda yechim topishni talab qiladi. Avvalo, soliq tizimini soddalashtirish va stavkalarni maqbullashtirish zarur. Ilgari murakkab soliqlar va yuqori stavkalar tadbirkorlarni norasmiy faoliyatga undagan bo‘lsa, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan soliq imtiyozlari va soddalashtirilgan deklaratsiyalar tadbirkorlikning rasmiy shakllarini tanlashni rag‘batlantirdi. Shu sababli, soliq stavkalarini yanada maqbullashtirish va kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun soliq yukini kamaytirish xufyona iqtisodiyotni qisqartirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. Elektron hisob-faktura, onlayn-kassa va yagona ma’lumot bazalari kabi texnologiyalar nafaqat soliq tushumlarini kuzatish imkoniyatini oshiradi, balki tadbirkorlar va fuqarolar faoliyatini shaffoflashtiradi. Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyalari asosida moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish va ularni real vaqtda monitoring qilish xufyona faoliyatni aniqlash va kamaytirish imkonini beradi.

Uchinchi yo‘nalish — jamoatchilik nazorati va shaffoflikni oshirish hamda aholining soliq madaniyatini targ‘ib qilish. Xufyona iqtisodiyotning kengayishiga ijtimoiy omillar ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, aholining moliyaviy va soliq madaniyatini oshirish, davlat organlari faoliyati shaffofligini targ‘ib qilish va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bu tadbirlar fuqarolarni rasmiy iqtisodiyotga jalb qilish va norasmiy sektorni qisqartirishda muhim vosita hisoblanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish — norasmiy sektorni rasmiylashtirishga rag‘batlantiruvchi mexanizmlar yaratish. Tadbirkorlikni rasmiylashtirishni rag‘batlantirish uchun subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, soliqqa bo‘lgan imtiyozlar va boshqa moliyaviy rag‘batlantirish choralari tatbiq etilishi mumkin. Bu orqali norasmiy sektor subyektlari rasmiy iqtisodiyotga o‘tishga undaladi va davlat byudjetining tushumlari oshadi.

Beshinchi muhim yo‘nalish — xorijiy tajribaga asoslangan korrupsiyaga qarshi kuchli mexanizmlar joriy etish. Rivojlangan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyotning kamayishida korrupsiyaga qarshi samarali institutlar va texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston sharoitida ham korrupsiyaga qarshi kurash tizimini kuchaytirish, barvaqt aniqlash va oldini olish mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, sud va moliyaviy nazorat organlarining mustaqilligini oshirish zarur.

Natijada, yuqorida keltirilgan chora-tadbirlar — soliq tizimini soddalashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, jamoatchilik nazorati va soliq madaniyatini oshirish, norasmiy sektorni rasmiylashtirish va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlar yaratish — birgalikda xufyona iqtisodiyotni qisqartirish, davlat byudjetini mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Choriev M., Karimov M., Xamrayev O., Urazov Sh. (2020). “Xufyona iqtisodiyot va uning jamiyatga ta’siri”. Toshkent: Iqtisodiyot va sanoat nashriyoti.
2. De Soto, Hernando. (2000). “The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else”. Basic Books.
3. De Soto, Hernando. (1989). “The Other Path: The Invisible Revolution in the Third World”. Harper & Row.
4. Gazeta.uz. (2019, 10 yanvar). “Xufyona iqtisodiyot qisqartiriladi – O‘zbekiston hukumati dastur ishlab chiqadi”. https://www.gazeta.uz/oz/2019/01/10/iqtisodiyot/
5. Review.uz. (2021, 15 dekabr). “O‘zbekistonning xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish yo‘l xaritasi”. https://review.uz/uz/post/uzbekistan-fighting-shadow-economy-roadmap
6. Wikipedia. (2022, 11 iyul). “Hernando de Soto”. https://www.worldhistory.org/Hernando_de_Soto/